

## **O'ZBEKISTON SANOATI TARAQQIYOTIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING O'RNI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

*Nilufar Esonova. Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi*

*Feruza Baxriddinova. Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,*

*Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish borasida katta tadbirlar amalga oshirildi. 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi qonunga muvofiq davlat mol-mulkini xususiylashtirish masalalari bo'yicha 20 dan ortiq maxsus dasturlar ishlab chiqildi va ularni amalga oshirishga davlat boshchilik qildi. Xususiylashtirish jarayoni umumiylashtirishga davlat boshchilik qildi. Xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlovchi xo'jaliklarni davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Bu «kichik xususiylashtirish» deb nom oldi.

Kichik xususiylashtirish 1994 yildayoq tugallandi. Davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog'i fuqarolarning xususiy mulki bo'lib qoldi. Bunda xar 3 kvartiraning bittasi egalariga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ilmiy xodimlar va ijodiy ziyolilarga kvartiralar bepul berildi. 2000 yilga qadar Respublika uy-joy fondining 98 foizga yaqini xususiylashtirildi.

Davlatga qarashli mulkni, korxonalarni xususiylashtirishga davlatning o'zi tashabbuskor bo'ldi va boshchilik qildi. Davlat mulkini xususiylashtirish boshlangandan keyin to 1994 yil oxirigacha 54 mingga yaqin korxona va obekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Shularning 18,4 mingtasi xususiy mulkka, 26,1 mingtasi aktsiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi.<sup>1</sup> 1994 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining deyarli yarmi iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lman sektorida ishlab chiqildi, bu sektorda 4 millionga yaqin kishi ish bilan band bo'ldi.

1994 yil 21 yanvarda e'lon qilingan «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 1994 yil 16 martda elon qilingan «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida»gi Prezident farmonlari xususiylashtirish jarayoniga yangi turki bo'ldi. O'rta va yirik korxonalarni aktsiyadorlik jamiyatlariga, ijara korxonalariga aylantira boshlandi, bu jarayonga aholi va chet ellik investorlar kengroq jalb qilindi. Davlat mulkini sotish bo'yicha kim oshdi savdolari va tanlovlar tashkil etildi. 1-ilovaga qarang.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etishdan iborat strategik vazifaga bo'yundirildi. Bunda ustivorlik xususiy mulkka, kichik va o'rta biznesga berildi.

Respublikada kichik va o'rta biznesni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondi tuzildi, dunyodagi nufuzli banklarning sarmoyalari jalb etilmoqda. Tadbirkorlar va biznesmenlarga maslahatlar bilan ko'maklashish maqsadida O'zbekiston nemis texnikaviy ko'maklashuv jamiyati kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash markazini, Yevropa hamjamiyati komissiyasi amaliy aloqalar markazini ochdilar. Markaziy Osiyodagi Amerika tadbirkorlik fondi va Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya investitsiya fondi tadbirkorlarga zarur maslahatlar bilan ko'maklashdilar. 1995-1998 yillarda kichik va o'rta korxonalar soni 2 baravar ko'paydi. Faqat 1999 yili kichik va o'rta biznes korxonalariga Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Germaniya tiklanish bankingning 200 mln. AQSh dollaridan ortiq kredit mablag'lari jalb etildi va o'zlashtirildi. Kichik va o'rta biznes sub'ektlarining YaIM dagi salmog'i 1999 yilda 12,6 foizni tashkil etdi<sup>1</sup>. 2000 yilning birinchi yarmida 18 mingdan ziyod kichik va o'rta biznes sub'ektlari ro'yxatga olindi. 2000 yil o'rtalarida ularning soni 175 mingdan ortdi<sup>2</sup>.

Agrar islohotlarga ustuvorlik berildi. Negaki respublika aholisining 62 foizi qishloqda yashaydi, qishloq xo'jaligida YaIM ning 30 foizi, mamlakat valyuta tushumlarining 55 foizi shakllanadi. Agrar islohotlar natijasida qishloq xo'jaligidagi davlat tasarrufidagi mulk xususiylashtirildi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida nodavlat sektorining ulushi 99 foizni tashkil qilmoqda.

Islohotlar yillarida odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo'shimcha ravishda 550 ming hektar sug'oriladigan yer ajratildi va shaxsiy tomorqa uchun berilgan yer maydoni 700 ming hektarga yetdi, 9 milliondan ortiq odam ana shu yer hosilidan foydalanmoqda.

Qishloqda xo'jalik yuritishning maqbul shakllarini yaratishga alohida e'tibor berildi. Agrar islohotlarning dastlabki yillarida sovxozi va kolxozlar jamoa xo'jaliklariga aylantirilgan edi. Ammo ular xo'jalik yuritishda o'zlarini to'la-to'kis oqlamaganliklari tufayli, mulk paylari asosida shirkatlarga aylantirildi. 1999 yilda 898 ta, 2000 yilda 856 ta qishloq xo'jaligi korxonalari shirkatlarga aylantirildi. Ularning umumiyligi soni 2000 yilning oxirlarida ruspublika bo'yicha 1754 taga yetdi. Agrar munosabatlar tizimida oila pudrati keng o'rinnegallamoqda. 2000 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, respublikadagi qishloq xo'jaligi korxonalari tarkibida 598,5 mingta oilaviy pudrat faoliyat ko'rsatdi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish-eng muhim vazifamiz. «Xalq so'zi» gazetasi, 2000 yil 15 fevral.

<sup>2</sup> Xalq so'zi gazetasi, 2000 yil 22 iyul.

Qishloq xo'jaligida fermer va dehqon xo'jaliklari salmoqli o'rinni egallamoqda. 2002 yilda fermer xo'jaliklari soni 55,4 mingdan ziyodni tashkil etdi. Fermer xo'jaliklariga 1 mln. gektardan ortiq yer biriktirilgan. Bu turdag'i xo'jaliklar don, kartoshka, sabzavot-poliz mahsulotlari, go'sht, sut, tuxum yetishtirishda tobora salmoqli o'rinni egallamoqda.

Qishloqda shaxsiy yordamchi xo'jaliklar dehqon xo'jaliklari sifatida qayta shakllanmoqda. Dehqon xo'jaligi-bu oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, tomorqa yer uchastkasi oila boshlig'iga umrbod meros qilib beriladi, mahsulotlar oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida yetishtiriladi va sotiladi. 2000 yil 1 yanvarga qadar 1541 ming dehqon xo'jaligi ro'yxatdan o'tkazildi, bu barcha shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning 43,3 foizini tashkil etadi. 1998-1999 yillarda respublikada yetishtirilgan go'shtning 90 foizi, sutning 92 foizi, kartoshkaning 76 foizi, sabzavotning 70 foizi, mevaning 61 foizi, poliz mahsulotlarining 53 foizi, uzumning 50 foizi dehqon xo'jaliklari tomonidan tayyorlandi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq, narxlar erkinlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz o'tdi. Negaki, davlat turli kompensatsiya jamg'armalari tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, eng kam ish haqi, pensiya, nafqalar va stependiyalar muntazam suratda oshirib borildi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotimizning hal qiluvchi tarmoqlaridan biriga aylanib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi viloyatda izchil rivojlanmoqda. Yalpi hududiy mahsulot tarkibida bu sohaning ulushi 52,4 foizni tashkil etadi, ish bilan band aholining 77 foizdan ziyodi ushbu sektorda mehnat qiladi, aholi daromadlarining yarmidan ko'pi mazkur tarmoq hisobidan shakllanayapti.

Ana shunday muhim natijalarni e'tirof etgan holda, bu sohada ayrim muammolar bor. Masalan, viloyatda ro'yxatga olingan 47 ming 400 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektidan 3 ming 450 ga yaqini amalda faoliyat ko'rsatmayapti.

Kichik biznes sub'ektlari o'z ishini tashkil etishi uchun ularga binolar, yer uchastkalari ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish masalalarida turli-to'siqlar uchrab turibdi.

Turli nazorat idoralari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari ko'zga tashlanmoqda. 2013 yilning birinchi yarmida nazorat organlari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati yuzasidan 14 ta noqonuniy tekshirish o'tkazilgan. Shuningdek, bir qator tumanlardagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish inspeksiyalari faoliyatida tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini buzish holatlari qayd etilgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida 2 million 830 ming aholi yashamoqda. Ularning 17,5 foizini maktab yoshidagi bolalar, 27 foizdan ortig'ini yoshlar, qar8iyb 50 foizini esa ayollar tashkil etadi. Keyingi 10 yilda viloyat aholisinin soni 1,2 barobar o'sdi.

Hayot o‘zgarishlari bilan birga insonlarning talab va ehtiyojlari, orzu-niyatlari, kerak bo‘lsa, tashvish-muammolari ham o‘sib boradi.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, viloyatda aholining real daromadlari 2000 yilga nisbatan jon boshiga 9,7 barobar ko‘paygan, shu davrda o‘rtacha oylik ish haqi 23 marta, pensiya va ijtimoiy nafaqalar 12,7 marta ortgan.

Oxirgi o‘n ikki yilda viloyatda 320 ta umumta’lim maktabi, 89 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji, 132 ta sog‘liqni saqlash muassasasi, 98 ta bolalar sporti ob'ekti foydalanishga topshirilgan.

Bu nafaqat shahar va qishloqlar qiyofasini, balki odamlarimizning dunyoqarashi, hayotga munosabatini tubdan o‘zgartirishga xizmat qilmoqda, ularning ertangi kunga ishonchini kuchaytirmoqda.

Ayni paytda viloyatda ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish uchun byudjetdan ajratilgan mablag‘larni o‘zlashtirishda ba’zan oqsoqlik holatlariga yo‘l qo‘yilayapti. Masalan, 2013 yili 2 ta kasb-hunar kolleji, 11 ta maktab belgilangan muddatda foydalanishga topshirilmagan.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar qurish dasturi doirasida Qashqadaryo viloyatida keyingi to‘rt yilda 2 ming 510 ta yangi, shinam uy-joy va infratuzilma ob'ektlari barpo etildi.

«Obod turmush yili» deb nom olgan 2013 yilda esa yana 1 ming 50 ta uy-joy, 32 kilometr ichimlik suvi, 28 kilometrdan ziyod elektr tarmoqlari, 40 kilometrdan ortiq tabiiy gaz tarmoqlari va 24 kilometrdan ziyod yo‘l qurish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borildi. Lekin, afsus bilan aytish kerakki, ayrim tumanlarda pudrat tashkilotlarini safarbar etish, tegishli moddiy-texnik resurslar bilan uzlusiz ta‘minlash, muhandislik kommunikatsiyalarini oldindan barpo etish ishlari talab darajasida tashkil etilmagan.

Sanoat sohasining yangi turlarini rivojlantirish maqsadida kelgusi to‘rt yilda umumiyligi – 2 milliard 98 million dollarga teng bo‘lgan 555 ta loyihani amalga oshirish, eng muhimmi, 13 mingdan ortiq yangi ish o‘rnini yaratish ko‘zda tutilyapti.

Ushbu loyihalarni amalga oshirish natijasida viloyatda sanoat mahsulotlari hajmi 1,2 barobar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 1,6 barobar, qurilish materiallari 1,8 marta, mashinasozlik va kimyo sanoati 2,9 karra, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi esa 1,7 barobar ortishi rejalashtirilgan.

Dasturda, jumladan, viloyatdagi yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali eksportbop zamonaviy tayyor gazlama va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha umumiyligi 100 million dollardan iborat bo‘lgan 82 ta loyihani a8malga oshirish belgilangan. Bu esa 2016 yilga borib, viloyatda yetishtiriladigan paxta tolasini qayta ishslash hajmini hozirgi 6 foizdan 35 foizga yetkazish va eng muhimmi, 4 mingta yangi ish o‘rnini yaratish imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Sherzovich, M. B. (2024). CONFLICT SITUATIONS IN THE PROCESS OF TRAINING INDUSTRY PERSONNEL IN SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS: HISTORICAL ANALYSIS AND RESULTS (1925-1950). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 221-225.
2. Sherzovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). DEVELOPMENT OF FOOD INDUSTRIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES. *World scientific research journal*, 24(1), 188-194.
3. Sherzovich, M. B. (2024). DEVELOPMENT OF HEAVY INDUSTRIES IN THE SOUTHERN PROVINCE OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES (1930-1960). *Modern education and development*, 16(5), 267-277.
4. Маматкулов, Б. (2024). Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, kadrlar tarkibini shakllantirish jarayonlari (1925-1950-yy). *Общество и инновации*, 5(5), 211-218.
5. MAMATQULOV, B. (2024). O 'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT KORXONALARINING TASHKIL ETILISHI VA HUDUDLAR SANOATINING IXTISOSLASHUVI JARAYONINING TARIXIY TAHLILI (1930-1950 yy). *Acta NUUz*, 1(1.2. 1).
6. Sherzovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). DEVELOPMENT OF FOOD INDUSTRIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES. *World scientific research journal*, 24(1), 188-194.
7. Mamatkulov, B. (2021). Conflicts of the process of the industrial staff training in the soviet period. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 507-510.
8. Mamatkulov, B. (2021, November). A New Interpretation of Industry in Uzbekistan During Independence. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 158-161).